# Transformatsiya ofisi menejeri

// 20 August 2022 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/vacancy-office-manager

Ish staji: 3 yil

To‘liq ish kuni

---

**MAJBURIYATLAR:**

- Transformatsiya dasturining nazorat ostidagi loyihalari va tadbirlarining samarali amalga oshirilishi va bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- Nazorat hujjatlarini, jumladan, loyiha portfeli, yo‘l xaritasi, Transformatsiya dasturining nazorat ro‘yxatini ishlab chiqish, yangilash va tasdiqlashda ishtirok etadi. Zarur hollarda Transformatsiya dasturining nazorat hujjatlariga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritilishini ta‘minlaydi;
- Transformatsiya dasturining byudjetini ishlab chiqadi va Kompaniya biznes-rejasi monitoringi doirasida byudjet ijrosi bo‘yicha natijalarni monitoring qiladi va tahlil qiladi.;
- Yo‘nalishlar boshliqlari tomonidan nazorat qilinadigan sohalarda Transformatsiya dasturini amalga oshirish nuqtayi nazaridan bo‘lim boshliqlari uchun motivatsion (individual) KPIlarni ishlab chiqadi.;
- Loyihani boshqarish amaliyotlari, yondashuvlari va vositalaridan eng yaxshi foydalanish bo‘yicha loyiha guruhlarini muvofiqlashtirad;
- Transformatsiya dasturi portfeli loyihalari uchun risklar ro‘yxatini shakllantirishni ta‘minlaydi;
- Potensial va strategik xatarlarni aniqlashda va Transformatsiya dasturi portfeli loyihalari xatarlarini ustuvorlashtirishda ishtirok etadi;
- Transformatsiya dasturining potentsial va amalga oshirilgan xatarlari to‘g‘risida hisobotlarni yaratadi;
- Transformatsiya dasturi auditi doirasida axborot, materiallar, tahlillar tayyorlanishini ta‘minlaydi;
- Ichki audit natijalari bo‘yicha Tuzatish tadbirlari rejasining bajarilishini nazorat qiladi, birlashtiradi va hisobotlar tayyorlaydi.;
- Transformatsiya dasturi va “Yo‘l xaritasi”ni amalga oshirishning borishi to‘g‘risida muntazam hisobotlarni shakllantiradi;
- Transformatsiya idorasi vakolatiga taalluqli xatlar, murojaatlarni ko‘rib chiqadi va ular bo‘yicha tegishli javoblar, xulosalar tayyorlaydi;
- Yangi biznes modellarini ishlab chiqadi va joriy etadi.

---

**TALABLAR:**

- Oliy ma‘lumotli;
- Ish tajribasi 3 yil;
- Ingliz va rus tilida bemalol gaplasha olishi;
- Texnologiyalarni bilish va ma‘lumotlar bilan ishlash qobiliyati;
- Ma‘lumotlarni tahlil qilishning matematik usullarini bilish;
- Rejalashtirish, prognozlash va modellashtirish qobiliyatlari;
- Tashkiliy o‘zgarishlarni boshqarish usullarini bilish;
- Yangi loyihalar bilan ishlaganligi;
- Bo‘limlar, loyiha guruhlarini yaratish tajribasi;

- Biznes jarayonlarini qayta qurish tajribasi;
- Normativ-huquqiy bazani bilish;
- Liderlik qobiliyati.

---

**ISH SHAROITI:**

- O‘z vaqtida kafolatlangan ish haqi;
- Kasbiy o‘sish imkoniyati;
- Ish haqi muvaffaqiyatli nomzod bilan muhokama qilinadi;
- Loyiha, ijodiy va innovatsion professional jamoada ishlash;
- Qiziqarli biznesga sho‘ng‘ish va ichki jarayonlarni o‘rganish, boshqa bo‘limlar ishiga qo‘shilish va kasbiy ufqlaringizni kengaytirish imkoniyati;
- Mehnat qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tish;
- Jozibador paket: oylik, choraklik mukofotlar.